

RANGLARDA AKS ETGAN MUSIQANING SEHRI

Nazarova Zilola

*Kamoliddin Behzod nomidagi M.R.D.I. ning "rangtasvir (dastgohli)" magistratura mutahassisligi 2- kurs*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ong va tafakkur uyg'unligini ijtimoiy hayotda nechog'li o'rni yuksakligi shuningdek, shu tafakkur negizida kashf etilgan san'at turlaridan biri rang va musiqani bog'liqligi yozilgan. Ayniqsa rang va musiqani monandligini aynan abstraksiya rassomi Kandeniskiy ijodi bilan bog'liqligi haqida keltirib o'tilgan. Hamda tatqiqotchilarni rang, hissiyot va musiqa o'rtasidagi bog'liqligi to'g'risida fikr yuritilgan.

THE MAGIC OF MUSIC REFLECTED IN COLORS

**Annotation:** In this article, it is written that the importance of the harmony of consciousness and thinking in social life is high, and that one of the types of art discovered on the basis of this thinking is the connection of color and music. In particular, it is mentioned that the analogy of color and music is related to the work of the abstract artist Kandenisky. Researchers were also made to think about the connection between color, emotion and music.

**Аннотация:** В этой статье написано, что высокое место в общественной жизни занимает гармония сознания и мышления, и что одним из видов искусства, открытых на основе этого мышления, является соединение цвета и музыки. В частности, упоминается, что аналогия цвета и музыки связана с творчеством художника-абстракциониста Кандениского. Исследователей также заставили задуматься о связи между цветом, эмоциями и музыкой.

**Kalif so'zlar:** Rang va musiqa , abstraksiya, ong va tafakkur , istedod, texnika asri, go'zalik va nafosat. Kandiniskiy.

**Key words:** Color and music, abstraction, consciousness and thinking, talent, age of technology, beauty and sophistication. Kandinsky.

**Ключевые слова:** Цвет и музыка, абстракция, сознание и мышление, талант, век технологий, красота и утонченность. КАНДИНСКИЙ.



Ong va tafakkur bu ikki jumla bir biriga shu qadar bog'liqliki, ular qo'shilib inson va unga hos tamoillarni vujudga keltiruvchi omillar hisoblanadi. Shuni negizida esa insonlar ibtidoiy davrdan to bugungi kunga qadar taraqqiy etib, o'z salohiyati, istedodi, qobiliyati va bilim ko'nikmasini ijtimoiy hayotning turli sohalariga tatbiq etib kelmoqda. Va aynan XI asr texnika asri, yani eng rivojlangan davr deb qaralishi, albatta bu inson va uning tafakkuri mahsulidir. Shuni natijasi o'laroq buni atrof muhitning turfa xil va rang-barang gurkirab kelayotgan hayot misoli ko'rish mumkin. Inson nuqtai nazaridan qaralsa, hayotga zavq go'zllik va nafasat nurlarini sochib turuvchi shubxasiz bu san'at ahli bo'lsa kerak! San'at olami keng va bir biriga bog'liq ana shu olamning bir bo'lagi tasviriy san'at turi bo'lib, bu san'at ham insonga estetik zavq va o'ziga hos kayifiyat ulashuvchi omil hisoblanadi. . Rang haqidagi qarashlar qadim-qadim zamonlardan buyon o'z rivojiga ega bo'lib kelgan. Tasvir ranglar orqali gavdalanadi rang esa bu insonning ichki dunyosi va shaxsiy karakteridan tus oladi. Yuqorida san'at turlari bir biriga bog'liqligi haqida so'z yuritildi. Bu ikki bog'liqlik rang va musiqa bo'lib, har ikkisi ham inson qalbi va ko'nglidan chiqadi va ularni bir biri bilan uyg'unlashuv holatini his etish mumkin. Rassom tasvirlagan asardagi kompozitsioniy ritm ranglar jarangdorligi soya yorug' o'yinlar musiqa ritmini eslatadi. Ayniqsa musiqani sehrini abstraksiya uslubidagi asarlarda his etish mumkin. Nima uchun aynan abstraksiya uslubida kuchliroq? Abstraksiyaning mavhumligi va uni aynan ko'ngil hisiyotlar tubidan chiquvchi ranglar o'yinni albatta musiqaga monandligidadir. Abstraksiya uslubida ijod etgan ko'plab rassomlar keltirish mumkin lekin ular orasida ijodining o'z o'rnini va o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan rassom

Kandiniskiyni keltirish mumkin. Kandiniskiy mavhumlik ostida yashiringan ichki kechirmalarini ko'pincha aynan shakllar orqali yoritishga intilgan. Kandinskiy noyob sovg'a - sinesteziya - ko'p hissiy idrok etish qobiliyatiga ega edi. Rassom tovushni ko'ra, rangni eshita olgan, tovushlar, ranglar va shakllar o'rtasidagi munosabatni his qilgan, musiqani o'z rasmlariga tarjima qilgan. Pompidou markazi tomonidan Google Arts & Culture bilan hamkorlikda 2021-yil 10-fevralda ishga tushirilgan Sounds like Kandinsky virtual loyihasi mualliflari rassomning ijodiy jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqishdi va bu loyiha ortida qanday tovushlar va his-tuyg'ular yashiringanini aytishga harakat qilishdi. Kandiniskiyning butun hayoti davomida musiqa uning jismoniy va ma'naviy borligining ajralmas qismi bo'lgan. Bolaligidan boshlab, Vasiliy violonchel va pianino chalishni o'rganganida, u o'tkir quloqni rivojlantirdi, bu rassomga kelajakda tovush va rangni aniqlashga imkon berdi Vasiliy Kandinskiy san'ati muxlislari dunyoga mashhur rassomning ijodida musiqa qanday katta rol o'ynaganini bilishadi. "Bo'yoq - bu kalit. Ko'z - bolg'a. Ruh ko'p torli pianino. Rassom - u yoki bu kalit yordamida inson qalbini maqsadga muvofiq ravishda tebranishga qo'yadigan qo'ldir", deb yozgan Kandinskiy o'zining "San'atdagi ma'naviyat haqida" asarida.

Yangi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqani hissiyotlar bilan avtomatik ravishda bog'laydi. quvnoq va optimistik ohanglar insonni kayfiyatini darhol ko'taradi va organning qattiq va tantanali ohanglari insonni g'amginlikka solib qo'yishi bejiz emas. Ammo musiqani idrok etish, u bizda uyg'otadigan his-tuyg'ular bilan bog'liq. Masalan, zikr etilgan tadqiqotda Motsartning G-majordagi №1 kontserti tadqiqotchilar tomonidan sariq va to'q sariq kabi yorqin va quvnoq ohanglar bilan, to'g'ridan-to'g'ri D minordagi qayg'uli rekviyem - ma'yus kulrang-moviy rang bilan bog'laydi. Tadqiqot natijalari rang, hissiyot va musiqa o'rtasidagi bog'liqlikni aniq ko'rsatadi. Maxsus palitra yordamida odamlar asosiy tugmachalardagi tez ohanglarni ochiq va quyoshli ranglar bilan, sekin va jiddiy musiqani esa quyuq va kulrang ranglar bilan bog'lashlari aniq isbotlangan.

<sup>1</sup> San'atdagi ma'naviyat. Vasiliy kandiniskiy.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammadiyev. E.M. "Rangshunoslik"
2. Vasiliy Kandinskiy " San'atdagi ma'naviyat"
3. Wassilykandiniskiy. Net.